


# Namangan viloyati statistika boshqarmasi

## 2018 yil yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI


Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 220,0 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 6,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,4 foizni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar-fevral oylarida 220,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, shundan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 6,8 mlrd.so'm, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 146,6 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 foizni va norasmiy sektorlar tomonidan esa 66,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil etdi.



**2018 yil yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida  
qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati %da**




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Namangan shahrida (58844,2 mlrd.so'm yoki 124,7 %) – ko'p qavatli turar-joylar qurilishi, maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi hamda sog'liqni saqlash ob'ektlarini kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish;
- Yangiqo'rg'on tumanida (15,6 mlrd.so'm yoki 152,6 %)- Yangiqo'rg'on hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;
- Uychi tumanida (23,8 mlrd.so'm yoki 142,6 %)- Uychi tumanida ko'priq qurilishi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Uchqo'rg'on tumanida - 78,5% (8.4 mlrd.so'm), Chortoq tumanida – 67.2% (9,5 mlrd.so'm) qayd etildi.

## 2018 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 26,7 %ini tashkil etdi, Namangan tumanida 12,3 %ni, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,8 %ni, tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Mingbuloq tumanida bu ko`rsatkich eng past 3,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 3,8 %ni , Pop tumanida ushbu ko`rsatkich 5,6 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



## Mulkchilik shakllari


### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 210,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,5 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 foiz punktga ko'paydi.





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilga nisbatan kamaygan.